



O`ZBEK TILINING ZID MA`NOLI SO`ZLAR O`QUV IZOHLI
LUG`ATINI TUZISHNING LINGVISTIK ASOSLARI

Axmedova Dildora Dilshodovna

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar

39-sonli mакtab oily toifali ona tili va adabiyot o`qituvchisi

O`tgan asr so`nggida bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotning jadal sur`atlar bilan rivojlanishi, zamonaviy axborot texnologiyalarining ommalashuvi, ilmiy tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish dolzarblashib, tilshunoslik ham amaliy vazifalariga –nutq samaradorligi tadqiqiga e`tiborni kuchaytirdi. Natijada fanda sotsiolingvistika, etnosotsiolingvistika, lingvopragmatika, pragmalingvistika, pragmatika, psixolingvistika kabi nomlar bilan yuritiluvchi yangi tarmoqlari shakllandi. Bu yo`nalishlarni o`zida mujassamlashtirgan yangi davr tilshunosligi nutqqa insoniy faoliyat-fikr almashtirish va o`zgalarga ta`sir ko`rsatish, bunyod qilishning asosiy turlaridan biri sifatida yondashib, uning ixchamligi, samaradorligi va ta`sirchanligi, mantiqiyligi tadqiqini birinchi o`ringa qo`yadi. Xususan, bugungi kunda jahon tilshunosligida nutqning faoliyat sifatidagi qiymati hamda uning implikaturalari bo`lgan ko`chma va tag ma`nolari ochiq ifodalanmagan, lekin ifodalanishi so`zlovchining maqsadi bo`lgan ma'lumot-axborotni aniqlash usullari ishlab chiqildi va u tezda ommalashib ulgurdi.

Dunyo tilshunosligida kommunikativ komponentlik va muloqot madaniyatini o`stirishning muhim vositalaridan bo`lgan yangi avlod antonim o`quv izohli lug`atlarni yaratish masalasi hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Ma`lumki, o`quv lug`atlar o`rganilayotgan til materialini taqdim qilish bilan birga ushbu materialni qanday taqdim qilish kerak degan savolga ham javob beradi, til leksik birliklari va ularning ma`nolari haqidagi retseptiv bilimlarni ham, o`zlashtirilgan mazkur



bilimlarni amalda qo'llay bilish ko'nikmasi- reproduktiv bilimlarni ham qamrab oladi.

“Ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o`qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholini nutq madaniyatini oshirish”¹ yo`nalishidagi o`zbek amaliy tilshunosligi oldiga muhim ijtimoiy buyurtma- o`quv leksikografiyası tarmog`ini rivojlantirish, zamonaviy, yangi avlod lug`atlari, xususan, “O`zbek tili antonimlari lug`ati”, “O`zbek tili antonimlarining katta izohli lug`ati”ni yaratish vazifalari qo'yildi. O`zbek tili antonimlarining o`quv izohli lug`atlarda talqini masalasi maxsus o`rganilmaganligi tanlangan mavzuning zarurati hamda dolzarbligini belgilaydi.

Har qanday til leksikasidagi taraqqiyot yangi lug‘aviy birliklarning paydo bo‘lishi, ma’lum lug‘aviy birliklarning eskirib iste’moldan chiqishi, so‘zlarning yangi ma’no(lar) kasb etishi yoki ayrim ma’nolarini yo‘qotishi kabi hodisalar bilan xarakterlanadi. Ana shunday o‘zgarishlar ma’lum darajaga yetgach, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi ishlarga ehtiyoj seziladi.² Ta’limiy maqsadda tuzilgan antonim lug`atlarda so`zni leksikografik talqin qilishda qanday mezonlarga asoslaniladi? Ma’lumki, izohli lug‘at tuzish, ayniqsa, kichik yoshdagи bolalar uchun lug‘at yaratish o‘ta murakkab jarayon. Bu shunchaki katta lug‘atlardan so‘z tanlab olib, alifbo tartibiga solishdan iborat emas. Bunda bolaning tabiatи, u ishlatishi mumkin bo‘lgan so‘z va iboralardan yaxshi xabardor bo‘lmoq kerak. Muallif boshlang‘ich maktab o‘quvchilariga izohli lug‘at yaratishda ana shu talablarga qat’iy rioya qilishi lozim. “Lug‘atni egallash atamasi-bu nafaqat so‘zni o‘zlashtirish, tushunish, balki uni amalda qo’llash, nutqiy faoliyatda foydalanish demakdir. Insonning yuqori nutq madaniyati, lug‘atining boyligi haqida uning jonli

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 oktabrdagi PF-6084-soni “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari tog‘risida”gi farmoni //www.lex.uz

²S.Normatov,Leksikografiya asoslari.O`quv qo’llanma, Tosh.2020



nutqini kuzatgandagina so`z yuritish mumkin. Lug`at ishidagi asosiy jihat –bu faqat bolalarga yangi so`zni tanishtirish emas, balki ularni faol nutqqa kiritishdir.

Maktabgacha ta`lim muassasasidagi lug`at ishi –bu bolalarning faol lug`atini notanish yoki ular uchun qiyin bo`lgan so`zlar bilan reja asosida boyitib borishdan iboratdir. O`zbek tili lug`ati to`xtovsiz tarixiy rivojlanish jarayonida bo`ladi. Undagi o`zgarishlar, eng avvalo, insonning ishlab chiqarish faoliyati, jamiyatning rivojlanishi bilan bog`liqdir. Yangi narsalar va hodisalarning paydo bo`lishi bilan ularni nomlovchi yangi tushunchalar va so`zlar ham paydo bo`ladi. Bundan tashqari ilgaridan mavjud bo`lgan ayrim so`zlar yangilanadi, ularning ma`nosi o`zgaradi, ko`p so`zlar muomaladan chiqib ketadi. Bolalar bilan lug`at ishlarini o`tkazishda so`zning rivojlanuvchi tusga egaligini hisobga olish zarur.^{”3} Lug`atlarda izohga qo`yiladigan talab lug`atning tuzilishidan, maqsadidan, yosh nuqtai nazaridan kelib chiqib qo`yiladi. Leksik birliklar taraqqiyot va davrga ko`ra o`zgaruvchanligi sabab izoh so`zning ma`nosini, zidlik ko`rsatkichlarini aniqlab berishi, o`quvchida ma`lum tushuncha hosil qilishi lozim. Shu sababli izohga qo`yilgan talablar “O`zbek tilining izohli lug`ati” da berilgani kabi keng doirada o`rganilishi lozim.

³ Eshboyev Q.B. So`zlararo darajalanish o`quv lug`atini tuzish asoslari.fil.fanl.b.fal.doktori(PhD) diss.Toshkent-2022-B-48.